# 139. Tenglamalar

$25 + x = 48$ — o‘zgaruvchi

$x = 23$ — ildiz



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 3 | 15 |
| 6 | 1 | | 11 |
| 5 | | | 18 |
| 15 | 13 | 16 | |



**Harf bilan belgilangan noma’lum songa o‘zgaruvchi deyiladi.**
**To‘g‘ri tenglik hosil bo‘lishi uchun noma’lum son o‘rniga qo‘yilgan son tenglamaning ildizi deyiladi.**

**1.** Masalaga tenglama tuzing. Ildizini toping. Maktab yonida katta istirohat bog‘i bor. Bog‘da 23 ta chinor daraxti, 21 ta zarang daraxti, 5 ta katta eman va qarag‘ay o‘sadi. Agar bog‘da 79 tup daraxt bo‘lsa, ular orasidagi qarag‘aylar soni nechtani tashkil qiladi?

| 23 | 21 | 5 | ? |
|---|---|---|---|
| Ch | Z | E | Q |

79

**2.** a) $x$ ni toping.

$x$: 3 | 7        12: $x$ | 5        20: 14 | $x$

b) Tenglamalardan foydalanib sxemalarni to‘ldiring. Ildizini topishga urinib ko‘ring.

$12 + x = 32$        $45 - x = 22$        $x - a = b$

**3.** Islom o‘rtoqlari bilan dam olish uchun bog‘ga bordi. O‘rtoqlari dam olishga nimalar olib kelgani haqida masala tuzing. Unga doir tenglama tuzing.




**4.** Namunaga qarab tenglamalarni yeching. Tekshiring.
*Namuna:*

$x + 6 = 14$
$x = 14 - 6$
$x = 8$

$8 + 6 = 14$
$14 = 14$

$49 - x = 35$

$x - 57 = 21$

**5.** Jadvalni to‘ldiring.

| $x$ | 0 | 5 | 11 | 22 | 45 | 76 | 84 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $x + 12$ | | | | | | | |

| $x$ | 5 | 12 | 19 | 26 | 55 | 78 | 96 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $x - 5$ | | | | | | | |

**6.** Geometrik tenglamalardagi bo‘shliqlarni to‘ldiring.

□ + ▭ + ○ + △ = uy
□ = uy – ▭ – △ –
▭ = uy – □ – ○ –
△ = uy – ▭ – – ○



T.ME/TRM_METODIKA_UZ
CHOP ETISH UCHUN EMAS